

**O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi huzuridagi
Jamoatchilik kengashi yig‘ilishining
BAYONI**

2025-yil 4-iyul

2-son

Toshkent shahri

Raislik qildi: A. Ayubjonov – Jamoatchilik kengashi raisi.

Qatnashdilar: Jamoatchilik kengashi a‘zolari, Milliy statistika qo‘mitasi raisi o‘rinbosari va tegishli tarmoq boshqarma va bo‘lim boshliqlari.

KUN TARTIBI:

- I. 2025-yil II chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar to‘g‘risida ma‘lumot;**
- II. Aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish masalalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha hisobot;**
- III. Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati tahlili;**
- IV. Milliy statistika qo‘mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan va ko‘rib chiqilgan murojaatlar bo‘yicha II chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar**

(A. Ayubjonov, Sh. Latipov, A. Mamirov, Z. Tojiyeva, U. Abdurasulov)

Milliy statistika qo‘mitasi huzuridagi Jamoatchilik kengashi (keyingi o‘rinlarda Jamoatchilik kengashi) raisi A. Ayubjonov yig‘ilishni ochib berib, kun tartibidagi masalalar bilan ishtirokchilarni tanishtirdi.

I. 2025-yil II chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar to‘g‘risida rais o‘rinbosari Z. Ziyayevning hisoboti eshitildi:

2025-yil yanvar–iyun oylarida “Statistika dasturi” doirasida belgilangan 1677 ta ish to‘liq bajarildi. Shundan 844 tasi Milliy statistika qo‘mitasi, 458 tasi boshqa rasmiy ishlab chiqaruvchilar, 375 tasi vazirlik va idoralar hissasiga to‘g‘ri keldi. Iqtisodiy tarmoqlar bo‘yicha ko‘rsatkichlar shakllantirilib, hukumat organlariga muntazam taqdim etildi. 2024-yil va 2025-yil boshidagi ijtimoiy-iqtisodiy natijalar Prezident Administratsiyasi, Vazirlar Mahkamasi va vazirliklarga yuborildi.

“Ijtimoiy-iqtisodiy holat” axborotnomasi hamda risolalar uch tilda chop etilib, tegishli tashkilotlarga yetkazildi. OAV va ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritildi: Telegram va Facebook sahifalarida 746 tadan, Instagramda 433 ta yangilik, telekanallarda 137 lavha va 20 ta infografika roligi e‘lon qilindi. “Ochiq ma‘lumotlar” bo‘limiga 1035 ta to‘plam

joylashtirildi, matbuotda 21 ta maqola chop etildi. Xalqaro amaliyot asosida 12 ta yangi uslubiy qo‘llanma ishlab chiqildi.

Hisobot davrida 54,8 ming respondentga tushuntirish berildi, 38,4 ming yangi respondent qamrab olindi, 71 ming buklet tarqatildi va 1464 ta OAV chiqishlari tashkil qilindi. Ochiq ma‘lumotlar portalida 7 mingdan ortiq to‘plam mavjud bo‘lib, ularning 2198 tasi Qo‘mita hissasiga to‘g‘ri keladi. Kadrlar malakasini oshirish institutida 6 ta kursda 294 nafar xodim o‘qitildi. “Ishchi kuchi kuzatuv” yakunlandi, “Innovatsion korxonalar” tadqiqoti davom etmoqda.

Axborot tizimlari integratsiyasi bo‘yicha ham sezilarli natijalarga erishildi: “Raqamli mahalla”, “E-mehmon”, davlat xaridlari portali, investitsion loyihalar platformasi va boshqa tizimlar SIAT bilan bog‘lanib, elektron almashinuv yo‘lga qo‘yildi.

Xalqaro hamkorlikda 30 ta savolnoma to‘ldirilib, BMT, YuNESKO, MDH, XVJ bazalariga ma‘lumotlar taqdim etildi. O‘zbekiston ko‘rsatkichlari COMTRADE va boshqa bazalarda o‘z vaqtida yangilanmoqda. Barqaror rivojlanish maqsadlari bo‘yicha 190 ta indikator tasdiqlanib, ulardan 152 tasi global indikatorlarga mos keladi. Qo‘mita BRM indikatorlari portalini yuritmoqda, 143 tasi muntazam e‘lon qilinmoqda. “Milliy BRM statistik to‘plami” uch tilda chop etilmoqda.

MICS kuzatuvlari va boshqa xalqaro tashabbuslar orqali ma‘lumotlar shakllantirilmoqda. O‘zbekiston BMT sahifasida ilg‘or tajribaga ega davlatlar qatoriga kiritildi. 2025-yilgi SDG Index hisobotida 62-o‘ringa ko‘tarilib, eng tez rivojlanayotgan 5 davlat qatoriga kirdi.

II. Aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ko‘rish masalalari yuzasidan amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha Ro‘yxatga olish jarayonlarini tashkil etish va o‘tkazish boshqarmasi boshlig‘i Sheraliyev Nurbek Abduxalilovich ma‘lumot berdi.

O‘zbekiston Respublikasining “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi Qonuni, PF-5655-son Farmoni (2019-yil 5-fevral) va VMning 710-son qarori (2020-yil 11-noyabr) asosida mamlakatimizda aholini ro‘yxatga olishga tayyorgarlik ishlari davom etmoqda.

2025-yil yanvar–iyun oylarida targ‘ibot ishlari doirasida 1784 dan ortiq maqola va tezislar e‘lon qilindi, 57 ta teleko‘rsatuv, 71 ta radioeshittirish va 176 ta matbuot materiali tayyorlandi. Shuningdek, OTMlarda 134 ta, maktablarda 1234 dan ortiq davra suhbatlari tashkil etildi.

PF-27 va PQ-75 qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalardan kelib chiqib, yangi Prezident farmoni va VM qarori loyihalari ishlab chiqilmoqda. Ularda ro‘yxatga olish sanasi va muddati belgilanib, respublika hamda hududiy komissiyalar tarkibi va vazifalari, shuningdek, ro‘yxatga olish tartibi, dasturi, savolnomalari va axborot xavfsizligi bo‘yicha masalalar nazarda tutiladi.

Xalqaro ekspertlar (YUNFPA, FAO, Belarus Milliy statistika qo‘mitasi) tavsiyalariga asoslanib, 6 turdagi savolnoma shakllari ishlab chiqildi va takomillashtirildi:

- Turar joy va unda yashovchilar ro‘yxati
- Shaxsga oid savolnoma
- Vaqtincha kelgan chet el fuqarolari savolnomasi
- Aholining ayrim toifalari uchun savolnoma
- Uy xo‘jaligining qishloq xo‘jaligi faoliyati savolnomasi
- Yuridik shaxslarning qishloq xo‘jaligi faoliyati savolnomasi

Hozirda 2025-yil avgustida o‘tkazilishi rejalashtirilgan aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish axborot tizimini sinovdan o‘tkazishga uslubiy va tashkiliy tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda.

III. Milliy statistika qo‘mitasi faoliyatida korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan ishlar holati tahlili.

Milliy statistika qo‘mitasida 2025-yilning II choragida korrupsiyani oldini olish va murosasiz muhitni shakllantirish bo‘yicha izchil ishlar amalga oshirildi.

Markaziy apparat va hududiy organlarda 50 ga yaqin seminar-treninglar o‘tkazildi. 24-iyunda qabul qilingan 63-son buyruq asosida 12 ta siyosat va reglament yangilandi. Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish doirasida barcha xodimlardan deklaratsiyalar olindi: markaziy apparatda holatlar aniqlanmagan, hududiy tizimlarda esa 3 ta holat qayd etilib, choralar ko‘rildi.

Shartnomalarda korrupsiyaga qarshi bandlar mustahkamlandi, qoidabuzarliklar aniqlanmadi. Chorak davomida 282 ta murojaat kelib tushib, ularning birortasi korrupsiyaga oid bo‘lmadi. Ishga qabul qilish jarayonlari ochiq tanlov orqali o‘tkazilib, 1300 dan ortiq xodim targ‘ibot tadbirlarida, yangi qabul qilingan 30 nafar xodim esa maxsus kurslarda qatnashdi. 1000 dan ortiq targ‘ibot materiallari tarqatildi.

Toshkent shahar va Qoraqalpog‘iston Respublikasida o‘rganishlar o‘tkazildi, hududlarda 8 ta seminar tashkil qilindi. Chorak yakunida markaziy va hududiy organlarda korrupsiyaga oid qoidabuzarliklar aniqlanmadi.

Xulosa qilib aytganda, ichki nazorat bo‘limi tizimdagi xavf-xatarlarni kamaytirish va murosasiz muhitni mustahkamlash bo‘yicha rahbariyatga muntazam takliflar kiritmoqda.

IV. Milliy statistika qo‘mitasiga jismoniy va yuridik shaxslardan kelib tushgan va ko‘rib chiqilgan murojaatlar bo‘yicha II chorak yakuni bo‘yicha bajarilgan ishlar.

Milliy statistika qo‘mitasida murojaatlar bilan ishlashni samarali tashkil etish va ijrosini nazorat qilish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi.

2025-yilning II choragida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahar va viloyatlarda 9 ta sayyor qabul o‘tkazilib, 230 nafardan ortiq fuqaro va tadbirkorlar ishtirok etdi. Murojaatlarning ko‘pi joyida hal qilindi, 65 tasi ro‘yxatga olinib, belgilangan tartibda javob berildi.

Hisobot davrida qo‘mitaga jami 282 ta murojaat kelib tushdi (115 tasi jismoniy, 167 tasi yuridik shaxslardan). Ularning manbalari: Prezident virtual qabulxonasi – 58 ta, elektron pochta – 123 ta, og‘zaki – 95 ta, bevosita – 6 ta.

Murojaatlar mazmuni:

• 155 tasi (55 %) – ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma‘lumotlar taqdim etish;

• 57 tasi (20,2 %) – amaliy yordam so‘rash;

• 40 tasi (14,2 %) – Yagona davlat registri masalalari;

• 15 tasi (5,3 %) – statistik hisobotlarni taqdim etish;

• 9 tasi (3,2 %) – arxiv ma‘lumotlari;

• 6 tasi (2,1 %) – boshqa masalalar.

Hududlar kesimida eng ko‘p murojaatlar Toshkent shahridan (134 ta, 47,6 %) kelib tushdi.

Jami 282 murojaatdan 268 tasi ko‘rib chiqildi, 14 tasiga tushuntirish berildi. Barcha murojaatlar rahbariyat nazoratida bo‘lib, o‘z vaqtida javoblar taqdim etildi.

Jamoatchilik kengashi qaror qiladi:

1. Taqdim etilgan hisobotlar ma‘lumot uchun qabul qilinsin;
2. Xodimlar malakasini oshirish, xorijiy tajribani o‘rganish, o‘quv kurslari va seminarlar muntazam tashkil etilsin hamda keng jamoatchilikni xabardor qilish maqsadida rasmiy veb-sayt, OAV va ijtimoiy tarmoqlar orqali tizimli yoritilishi taklif etiladi;
3. Jamoatchilik kengashi huzurida ijro intizomini mustahkamlash, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olish va aholini ro‘yxatga olish bo‘yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar qat’iy nazoratga olinsin. Kengash kotibi yig‘ilish bayoni nusxasini Milliy statistika qo‘mitasiga taqdim etishni ta‘minlasin.

Jamoatchilik kengashi
mas’ul kotibi



U. Abdurasulov